15	Г.Д. Клеблеева, Г.К. Калимбетовна, Н.Х. Хамедова, Ж.А. Латипова, Л.Р. Усманова Роль функциональных нарушений в патогенезе аллергических васкулитов кожи на фоне коморбидных заболеваний G.D. Klebleyeva, G.K. Kalimbetovna, N.H. Hamedova, J.A. Latipova, L.R. Usmanova The role of functional disorders in the pathogenesis of allergic vasculitis of the skin against the background of comorbid diseases G. D. Klebleeva, G. K. Kalimbetovna, N. X. Xamedova, J. A. Latipova, L. R. Usmonova Allergik teri vaskuliti Komorbid kasalliklari fonida patogenezinining funktsional buzilishlari.....	72
16	А.К. Жиен, М.А.Таскинова, Б.Н.Баймуратова, З.Я. Шерматова Динамика показателей качества жизни пациентов с инсультом A.K. Zhien, M.A.Taskynova, B.N.Baimuratova, Z.Ya. Shermatova Dynamics of quality of life indicators in stroke patients A.K. Jiyen, M.A.Taskynova, B.N.Baimuratova, Z.Ya. Shermatova Insult bilan og'rigan bemorlarda hayot sifati ko'rsatkichlari dinamikasi.....	79
17	Ш.А. Хусинова, Л.Р. Хакимова Современные аспекты рационального использования лекарственных препаратов в практике врача (Обзор литературы) Sh.A. Khusinova, L.R. Khakimova Modern aspects of rational use of medicines in medical practice (Literature Review) Sh.A. Xusinova, L.R. Xakimova Tibbiyot amaliyotida dori vositalaridan unumli foydalanishning zamonaviy jihatlar (Adabiyotlar sharhi).....	84



Ярмухамедова Саодат Хабибовна

заведующая кафедрой, к.м.н., доцент

Самаркандский государственный медицинский университет,

кафедра пропедевтики внутренних болезней

Самарканд, Узбекистан

Бердиев Дониёр Хасанович

ассистент кафедры, базовый докторант

Самаркандский государственный медицинский университет,

кафедра пропедевтики внутренних болезней

Самарканд, Узбекистан

ИЗУЧЕНИЕ СУСТАВНОГО СИНДРОМА И НАРУШЕНИЙ ЦЕНТРАЛЬНОЙ ГЕМОДИНАМИКИ ПРИ КОМОРБИДНОМ ТЕЧЕНИИ ПОДАГРЫ

For citation: S.Kh.Yarmukhamedova, D.H. Berdiev. STUDY OF JOINT SYNDROME AND CENTRAL HEMODYNAMIC DISORDERS IN THE COMORBID COURSE OF GOUT. Journal of cardiorespiratory research. 2025, vol.6, issue 2.3, pp.30-35



<http://dx.doi.org/10.26739/2181-0974/2025/6/2/3/5>

АННОТАЦИЯ

Подагра вызывает не только воспалительные заболевания суставов, но и серьезные проблемы в сердечно-сосудистой системе. Специфика заболевания связана с гиперурикемией и характеризуется накоплением кристаллов урата натрия в различных тканях и развивающимися в них воспалительными процессами. Исследования показывают, что у больных подагрой повышен риск развития сердечно-сосудистых заболеваний, в частности артериальной гипертензии, ишемической болезни сердца, сердечной недостаточности и атеросклероза. Этот риск еще больше увеличивается из-за метаболического синдрома и дисбаланса иммунной системы. Установление связи подагры с заболеваниями сердечно-сосудистой системы и совершенствование методов лечения является актуальной научной задачей.

Ключевые слова: подагра, трансметральный кровоток, архитектура левого желудочка, артериальная гипертензия, ишемическая болезнь сердца, коморбидная патология.

Yarmukhamedova Saodat Khabibovna

Head of Department, Candidate of Medical Sciences

Associate Professor

Samarkand State Medical University

Department of Propaedeutics of Internal Diseases

Samarkand, Uzbekistan

Berdiev Daniyori Hasan o'g'li

Assistant of the Department, Basic Doctoral Student

Samarkand State Medical University

Department of Propaedeutics of Internal Diseases

Samarkand, Uzbekistan

STUDY OF JOINT SYNDROME AND CENTRAL HEMODYNAMIC DISORDERS IN THE COMORBID COURSE OF GOUT

ANNOTATION

Gout is not only an inflammatory disease of the joints, but also causes serious problems in the cardiovascular system. The specificity of the disease is associated with hyperuricemia, characterized by the accumulation of sodium urate crystals in various tissues and the inflammatory processes that develop in them. Studies show that patients with gout have a high risk of developing cardiovascular diseases, in particular, arterial hypertension, ischemic heart disease, heart failure and atherosclerosis. This risk is

further increased by metabolic syndrome and an imbalance in the immune system. Identifying the relationship between gout and cardiovascular diseases and improving treatment methods is an urgent scientific issue.

Keywords: gout, transventricular flow, left ventricular architecture, arterial hypertension, ischemic heart disease, comorbidity.

Yarmuxamedova Saodat Xabibovna

Kafedra mudiri, t.f.n.dotsent
Samarqanda Davlat Tibbiyot Universiteti
Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrası
Samarqand, O'zbekiston

Berdiyev Doniyor Hasan o'g'li

Kafedra assistenti
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti
Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrası
Samarqand, O'zbekiston

PODAGRA KOMORBID KECHISHIDA BO'G'IM SINDROMI VA MARKAZIY GEMODINAMIKA BUZILISHINI O'RGANISH

ANNOTATSIYA

Podagra kasalligi nafaqat bo'g'im yallig'lanish kasalliklari, balki yurak-qon tomir tizimida ham jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Kasallikning o'ziga xosligi giperurikemiya bilan bog'liq bo'lib, natriy urat kristallarining turli to'qimalarga yig'ilishi va bunda rivojlanuvchi yallig'lanish jarayonlari bilan xarakterlanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, podagra bilan kasallangan bemorlarda yurak-qon tomir kasalliklari, xususan arterial gipertenziya, yurak ishemik kasalliklari, yurak yetishmovchiliklari va ateroskleroz kabi kasalliklar kelib chiqish xavfi yuqori. Ushbu xavf metabolik sindrom va immun tizimning disbalansi tufayli yanada ortadi. Podagra va yurak-qon tomir tizimi kasalliklari o'rtasidagi ushbu kompleksning o'zaro aloqalarini aniqlash va davolash usullarini takomillashtirish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

Kalit so'zi: podagra, transmetral oqim, chap qorincha arxitektonikasi, arterial gipertenziya, yurak ishemik kasalligi, komorbid.

Mavzuning dolzarbligi: Podagra kasalligi va AG komorbid kechishini bugungi kunda o'rganish dolzarb hisoblanadi. Yurak-qon tomir kasalliklari patogenezida endotelial disfunktsiya va immuno-yallig'lanish mexanizmlarining patogenetik roli ma'lum. Shu bilan birga, bugungi kunga kelib, podagra kasalligi bilan bog'liq bo'lgan gipertenziyada endoteliyning funktsional holati va immun holatidagi o'zgarishlar noaniq bo'lib qolmoqda. AG qon aylanish tizimidagi bir qator patologik o'zgarishlar (ateroskleroz, a'zolaridagi ishemik va sklerotik o'zgarishlar, serebrovaskulyar, yurak va buyrak etishmovchiligining rivojlanishi) bilan bog'liq holda modulyatsiya qiluvchi mexanizm vazifasini bajaradi, bu esa odamning umr ko'rish davomiyligini belgilaydi. Ushbu ikki patologiyaning kombinatsiyasini o'rganish muammosining dolzarbligi nafaqat uning keng tarqalishida, balki bu kombinatsiya yurak-qon tomir asoratlari xavfini sezilarli darajada oshirishi va bemorlarning ushbu guruhida yuqori o'limga olib kelishi bilan bog'liq. Shu munosabat bilan, podagra kasalligi sababli gipertoniya kasalligi bilan og'rigan bemorlarda yurak-qon tomir xavfining endotelial funktsiyasi va immun markerlarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar istiqbolli hisoblanadi. Shubhasiz, kombinatsiyalangan patologiyada yurak-qon tomir zararlanishlarining shakllanish mexanizmlarini amaliyotda o'rganish, davolash usulini optimallashtirish va kasallikning prognozini yaxshilashga yordam beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, podagra va gipertenziyani davolash usullarini takomillashtirish zamonaviy tibbiyotning ustuvor yo'nalishidir.

Ishning maqsadi: Bemorlarda podagra va arterial gipertenziya komorbid kechishida, bo'g'im zararlanishlari va markaziy gemodinamika buzilishini o'rganish hamda bemorlarda endotelial disfunktsiyani erta aniqlash orqali yurak qon tomir kasalliklarini erta aniqlash.

Tekshiruv materiallari va usullari: Biz tadqiqotimizni jami 50 nafar erkak bemorlarda olib bordik. Bu bemorlardan 23 nafarida kasallik surunkali kechgan bo'lsa 27 nafarida retsidivlanib kechdi. Bemorlarning hammasidan EXO-KG,

EKG, Rentgenografiya, umumiy qon tahlili, qonda siydik kislotasi miqdori, qonning biokimyoviy tekshiruvi, qon tomirlar UTTsi tekshiruvlari va maxsus so'rovnoma o'tkazildi.

Bemorlarimiz yosh ko'rsatkichi bo'yicha 42 yoshdan 72 yoshgacha bo'lgan jami 50 nafarni qildi. 42 yoshdan 59 yoshgacha 63.3% 60 yoshdan 74 yoshgacha bo'lganlar esa 27,7% ni tashkil qildi.

35 nafar bemorda kasallik 36-55 yosh o'rtasida boshlangan. Podagra bilan kasallangan eng yosh bemor 42 yoshda, Yoshi katta 2 nafar bemorimiz esa 74 yoshda edi.

Bemorlarni 2 guruhga bo'lib o'rgandik: 1-guruh kasallik kechishiga ko'ra retsidivlanib kechayotgan 27 bemor, 2-guruh kasallik surunkali kechayotgan 23 nafar bemor. Har ikkala guruh bemorlarda ham qonda siydik kislotasi miqdori yuqoriligi aniqlandi. Qon tarkibidagi siydik kislotasi miqdori podagra retsidivlanib kechgan guruh bemorlarida 360- 972,0 mkmol/l ni tashkil etgan bo'lsa, ikkinchi guruh bemorlarda 473.6- 603 mkmol/l ni tashkil qildi.

Olingan natijalar: Podagra kasalligi bilan kasallangan jami 50 nafar bemordan 36 nafarida arterial gipertenziya komorbid holda kechdi.

Bemorlarni EXO-KG tekshiruvidan o'tkazganimizda:

Podagra va AG komorbid kechgan bemorlarda chap qorinchaning diastola oxiridagi o'lchami va diastola oxiridagi hajmi, boshqa bemorlarga qaraganda 22%ga oshganligi aniqlandi. Chap qorinchaning sistola oxiridagi o'lchami va chap qorinchaning sistola oxiridagi hajmi esa podagra kasalligi retsidivlanib kechgan bemorlarda kasallik surunkali kechgan bemorlarga nisbatan 15% oshganligi aniqladik.

Tekshirilayotgan barcha guruhlardagi bemorlarda qorinchalar aro to'siq qalinligi bir xil ko'rsatkichlarni namoyon qildi. Chap qorincha orqa devorining qalinligi kasallik retsidivlanib kechgan bemorlarda ikkinchi guruhdagi bemorlarga nisbatan 2% kamayganligi ko'rdik.

Chap qorincha miokard massasi podagra kasalligining og'irlik darajasi oshib borgan sari uning ko'rsatkichi ham oshib

borgan. Bu esa barcha tekshirilayotgan guruhlar orasida bu ko'rsatkich sezilarli darajada farqni yuzaga keltirdi. Podagra kasalligi surunkali kechgan bemorlarda, kasallik retsivlanib kechgan bemorlarga qaraganda chap qorinchaning miokard

massasi yuqori ekanligi aniqlandi. Barcha podagra bilan og'rigan bemorlar guruhlarida chap qorincha miokard massa indeksi bir xil ko'rsatkichda o'zgargan.

1-jadval

Podagra va AG komorbid kechgan bemorlarda EXO-KG dagi ko'rsatkichlari

Exo-KG dagi parametrlari	Kasallikning kechishiga ko'ra taqsimlanishi	
	Retsivlanib (n=27)	Surunkali (n=23)
CHQ diastola oxiridagi o'lchamism da	5,2 [4,78; 6,19]	5,45 [5,20; 5,75]
CH diastola oxiridagi hajmiml da	128,07 [107,52; 193,99]	141,31 [123,81; 160,04]
CHQ sistola oxiridagi o'lchamism da	3,38 [3,15; 3,70]	3,55 [3,12; 3,66]
CHQ diastola oxiridagi hajmiml da	46,64 [35,00; 58,13]	49,15 [37,92; 56,32]
Qorinchalar aro to'siq qalinligi	1,21 [0,9; 1,44]	1,2 [1,08; 1,28]
CHQ devori qalinligi, sm	1,18 [1,05; 1,48]	1,26 [1,06; 1,33]
CHQ devorining nisbiy qalinligi	0,47 [0,40; 0,56]	0,44 [0,41; 0,47]
CHQ miokard massi, g	258,77 [187,2; 441,05]	268,32 [226,41; 336,86]
CHQ miokard massa indeksi, g/m ²	131,57 [94,16; 220,53]	131,48 [109,87; 165,5]

Barcha guruhdagi podagra va arterial gipertenziya komorbid kechgan bemorlarda ExoKG tekshiruv yordamida qonning transmetral oqim ko'rsatkichlari o'rganildi. Tekshiruvdagi bemorlarimizda quyidagi transmetral oqim parametrlarini aniqladik:

- normal tip: $E/A=1,0-2,0$; CHQ izovolemik bo'shashish vaqti =50-100 ms; CHQ sekin to'lish davomiyligi >170 ms.
- gipertrofik tip: $E/A<1,0$; CHQ izovolemik bo'shashish vaqti >100 ms; CHQ sekin to'lish davomiyligi <170 ms.
- psevdonormal tip: $E/A=1,0-2,0$; CHQ izovolemik bo'shashish vaqti <50 ms; CHQ sekin to'lish davomiyligi >170 ms.

- dekompensatsiyalashgan tip: $E/A>2,0$; CHQ izovolemik bo'shashish vaqti <50 ms; CHQ sekin to'lish davomiyligi <170 ms.

Bizning tekshiruvlardagi bemorlar orasidan transmetral oqim buzilishlarining barcha turi aniqlandi. 10 nafar bemorda psevdonormal tip, 15 nafarida gipertrofik tip, 13 nafarida dekompensatsiyalashgan tip va 12 nafarida normal tipda kechgan.

Podagra bilan og'rigan bemorlar orasidan chap qorincha diastolik disfunktsiyasini o'rganilganda, kasallik retsivlanib kechgan bemorlarda 27% va kasallik surunkali kechgan bemorlarda esa 38% da diastolik disfunktsiya kuzatildi. (2-jadval).

2-jadval

Podagra bilan kasallangan bemorlarda chap qorincha diastolik disfunktsiyasi uchirashi n (%)

Ko'rsatkichlari	Podagra kasalligining kechishiga ko'ra	
	Retsivlanib (n=27)	Surunkali (n=23)
Diastolik disfunktsiya bor bemorlar soni %	10 /37,14%	9 /39%
Diastolik disfunktsiya yo'q bemorlar soni %	17 /63%	14 /61%

Yuqoridagi olingan natijalarga ko'ra podagra bilan kasallangan bemorlarda yurak qon tomir struktur o'zgarishi kasallikning kechishiga bog'liqligini ko'rsatdi.

Ilmiy tadqiqotimizda podagra bilan kasallangan bemorlarni chap qorincha geometrik tuzilishiga ko'ra ma'lum bir guruhlariga ajratib oldik. CHap qorinchaning miokard massasi va chap qorincha devorining nisbiy qalinligiga qarab chap qorinchaing 4 xil geometric o'zgarishini aniqladik.

-Normal geometric tuzilishga ega CHQ miokard massa indeksi va CHQ devorining nisbiy qalinligi normada.

-Konsentrik remodellashgan tip - CHQ devorining nisbiy qalinligi oshgan, CHQ miokard massa indeksi normada.

-Konsentrik gipertrofiyalashgan tip - CHQ devorining nisbiy qalinligi oshgan, CHQ miokard massa indeksi ham oshgan.


-Ekssentrik gipertrofiyalashgan tip - CHQ miokard massa indeksi oshgan, CHQ devorining nisbiy qalinligi kamaygan.

Bizning tekshiruvdagi bemorlar o'rtasida har to'rttala tipdagi chap qorincha geometriyasiga ega bemorlar uchradi: 11 (22%) nafar bemorda normal geometric tuzilishga ega CHQ, 10(20%) nafar bemorda konsentrik remodellashgan tip; (34%) 17nafar bemorda konsentrik gipertrofiyalashgan tip va 12(24%) bemorda ekssentrik gipertrofiyalashgan tip aniqlandi (1-rasm).

Tekshiruvlarga ko'ra podagra bilan kasallangan 45% bemorda chap qorincha arxitektonikasining buzilishi uchraydi,

bemorlarning 34% qismida CHQkonsentrik gipertrofiyasi uchraydi, 24% bemorda CHQekssentrik gipertrofiyasi aniqlandi.

Qolgan bemorlarda CHQ miokard massa indeksi normal saqlangan holda uning konsentrik remodellashuvi kuzatildi.



Bizning tekshiruvdagi bemorlarda podagra kasalligining kechishiga qarab chap qorincha geometrik tuzilishida o'zgarishlar aniqlandi (3- jadval).

3-jadval

Podagra kasalligida chap qorincha geometrik shakllarining kasallik kechishiga qarab uchrash chastotasi %da

Chap qorincha geometrik tuzilish turlari	Kasallik kechishiga ko'ra	
	Retsidivlanib (n=27)	Surunkali (n=23)
CHQnormal geometriyasi	3(11,1)	8 (34,7)
CHQ konsentrik remodellashuvi	6 (22,2)	4(17,4)
CHQ konsentrik gipertrofiyalashuvi	8 (29,6)	9 (39,13)
CHQ ekssentrik gipertrofiyalashuvi	4 (14,81)	8 (34,7)

Podagra va AG komorbid kechuvida, kasallik surunkali kechgan bemorlarda 39.5 % holatlarda Chap qorincha KG kuzatildi, 34.8 % bemorlarda Chap qorincha EG rivojlangan, 17.4% bemorlarda esa Chap qorincha KR rivojlangan bo'lsa 34.7% bemorlarda Chap qorincha NG kuzatildi. Kasallik ritsidivlanib kechgan bemorlarda eng ko'p (29.8%) Chap qorincha KG rivojlangan, 22,2 % holatda esa Chap qorincha KR yuzaga kelgan. Podagra ritsidivlanib kechgan bemorlarda CHQEG 14.81%va CHQNG 11,1% kuzatildi. Bizning tadqiqotimizda chap qorinchaning geometriyasining buzilish

turlari umumiy uchrash chastotasi, kasallik ritsidivlanib kechgan bemorlarda 43% ni kasallik surunkali kechgan bemorlarda esa 57% ni tashkil qildi. Juda ko'p holatlarda bemorlarda chap qorinchaning konsentrik gipertrofiyasi rivojlanganligi aniqladik. Tekshiruvlardan ma'lumki ushbu geometrik buzilishlar yurak qon tomir tizimining modifikatsiyalanmagan xavf omillariga kiradi va yurak qon tomir yetishmovchiligi rivojlanishida eng asosiy xavf omillaridan biri hisoblanadi.

4-jadval

Podagra kasalligida Chap qorinchaning geometrik tuzilishiga ko'ra endothelial disfunktsiya uchrash chastotasi

Ko'rsatkichlari		Chap qorincha NG (n=11)	Chap qorincha KR (n=10)	Chap qorincha KG (n=17)	Chap qorincha EG (n=12)
Endotelial disfunktsiya	Bor	4 (33,3)	7(70)	4 (23,5)	4(33.33)
	Yo'q	7 (66.6)	3 (30%)	13(76,47)	8(66.67)

Bizdan oldingi ko'plab tadqiqotlarda chap qorinchaning geometriyasining buzilish sabablari o'rganilgan bo'lsada, yurak qon tomir kasalliklari va yurak geometriyasi buzilishiga podagra kasalligida siydik kislotaning qondagi yuqori konsentratsiyasi

natijasida kelib chiqadigan endothelial disfunktsiyaga bog'liq ekanligini o'rgandik. Bundan kelib chiqadiki endothelial disfunktsiyasi bor bemorlarda yurak qon tomir kasalliklari uchrash chastotasi yuqori hisoblanadi. (4- jadval).

5-jadval

Podagra kasalligi AG bilan kmorbid kechishida CHQ geometrik tiplarining uchrash chastotasi

Arterial gipertenziya		Normal geometriyasi	Konsentrik remodellashuvi	Konsentrik gipertrofiyalashuvi	Ekssentrik gipertrofiyalashuvi
	Bor (n=36)	5(13.9)	8(22.22)	13(36.11)	10(27.77)
	Yo'q(n=14)	6(42.85)	2(14.28)	4(28.57)	2(14,28)

Tekshiruvlarga ko'ra Arterial gipertenziyasi mavjud bo'lgan podagra bilan kasallangan bemorlarning 36% da CHQ konsentrik gipertrofiyalashuvi, 28,0% bemorlarda CHQ ekssentrik gipertrofiyalashuvi uchradi. CHQ normal

geometriyasi mavjud bemorlarda qon bosimi ham normal ko'rsatkichlarda ekanligi qayd qilindi. Eng ajablanarli holati shundaki 28% bemorlarda qon bosiminormal holatda ham chap qorinchaning geometric tuzilishida o'zgarish kuzatildi.

6-jadval

Podagra kasalligining kechishiga qarab arterial gipertenziya komorbid kechish chastotasi n (%)

Arterial gipertenziya		Podagra retsidivlanib kechgan bemorlar (n=27)	Podagra surunkali kechgan bemorlar (n=23)
	Bor	21 (77.8)	15 (65.2)
	Yo'q	6 (22.2)	8 (34.7)

Biz bemorlarda podagra va arterial gipertenziya komorbid kechishiga qarab chap qorinchaning diastolik disfunktsiyasini tahlil qilib ko'rdik (6- jadval). Natijalarga ko'ra podagra bilan kasallangan normal qon bosimiga ega bo'lgan bemorlarda ham

28,7% holatlarda chap qorinchaning diastolik disfunktsiyasi kuzatiladi. 33 % dan ortiq podagra bilan arterial gipertenziya birgalikda kechishida chap qorinchaning diastolik disfunktsiyasi aniqlanadi.

7-jadval

Arterial gipertenziyaning chap qorincha diastolic disfunktsiyasiga ta'siri

Diastolik disfunktsiya		Arterial gipertenziya	
		Yo'q (n=14)	Bor (n=36)
	Bor	5 (35.7%)	14 (38.8%)
	Yo'q	9(64.2%)	22 (61.1)

Muhokama: Yuqoridagi tekshiruv natijalariga ko'ra podagra va arterial gipertenziya komorbid kechishida diastolic disfunktsiya ko'proq rivojlanadi. Shu bilan birga, yuqorida qayd etilgan o'zgarishlar kasallikning surunkali kechishida retsidivlanib kechishiga ko'ra ko'proq chastotada uchrashi aniqlangan. Yana tadqiqotlarimiz natijalariga ko'ra muhokama qiladigan bo'lsak, ushbu tekshiruvda markaziy gemodinamikani buzilishining rivojlanishi qondagi siydik kislota konsentratsiyasiga, qondagi ksantinoksidazaga korrelativ bog'liqligi o'rganildi.

Xulosa: Bizning muvofaqiyatli o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlarimiz natijalariga ko'ra xulosa qiladigan bo'lsak, Podagra va arterial gipertenziya komorbid kechuvida markaziy gemodinamika buzilishiga sabab bo'luvchi asosiy faktorlar: chap qorinchaning geometric o'zgarishlari yurak qon tomir

endotelial disfunktsiyasi sababli vujudga keldi. Qon tomir endotelial disfunktsiyasi rivojlanishi qondagi siydik kislota miqdoriga korrelyatsion bog'liq ekanligi aniqlandi. Podagra kasalligi qanchalik og'ir kechsa bemorlarda asosiy klinik sindromlardan bo'gim sindromi yanada yaqqol namoyon bo'ldi. Podagra bilan kasallangan bemorlarda arterial gipertoniya va yurak ishemik kasalliklari kabi kardiovaskulyar zararlanishlarning yuqori chastotasi kuzatildi. Bu kasalliklar asorati sifatida diastolic disfunktsiya rivojlandi va yurak qon tomir yetishmovchilik kasalliklari kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak bu tadqiqotimizga ko'ra podagra va arterial gipertenziya komorbid kechuvida endotelial disfunktsiyani ertaroq aniqlasak ko'plab asoratlarni oldini olgan bo'lamiz.

References / Список литературы / Iqriboslar

1. Tairov D.R., Berdiev D.KH. "Gout: Immunological and genetic characteristics of the disease." Volume: 3, Issue: 12, Dec-2024. journals.academiczone.net.
2. Tairov D.R., Berdiev D.KH. "Characteristics of Cardiohemodynamic Disorders in Gout Disease." SCIENTIFIC PROGRESS. Volume 2, Issue 3, 2021. ISSN: 2181-1601.
3. Tairov D.R., Berdiev D.KH. "Medication and Non-Medication Methods to Eliminate Hyperuricemia in Gout." "Science and Education" Scientific Journal. Impact Factor 3.848. May 2023, Volume 4, Issue 5.
4. Tairov D.R., Berdiev D.KH. "Characteristics of Heart Functional Disorders in Gout Disease." GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ). ISSN (E): 2347-6915. Vol. 10, Issue 5, May 2022.
5. Tairov D.R., Berdiev D.KH. "Cardiovascular Damage and Metabolic Syndrome Comorbidities in Patients with Gout Disease." 2nd International Congress on Multidisciplinary Studies. Indonesia. February 20th, 2021. conferencepublication.com.
6. Nasonov E.L., Karateev D.E., Satibaldiyev A.M., et al. (2015).
7. Adams P.F. "Current Estimates from the National Health Interview Survey, 1996." Vital Health Stat. Vol. 10, 1999.
8. Saag K.G., Mikuls T.R. "Recent Advances in the Epidemiology of Gout." Curr. Rheumatol. Rep. Vol. 7, 2005, pp. 235–241.
9. Terkeltaub R.A. "Clinical Practice. Gout." N. Engl. J. Med. Vol. 349, 2003, pp. 1647–1655.
10. Tairov E.S., Tairov D.R. "Metabolic Syndrome in Gout: Its Relationship with Renal Functional Disorders." Questions of Science and Education. No. 28 (77), 2019.

11. Wallace K.L., Riedel A.A., Joseph-Ridge N. "Increasing Prevalence of Gout and Hyperuricemia Over 10 Years Among Older Adults in a Managed Care Population." *J. Rheumatol.* Vol. 31, 2004, pp. 1582–1587.
12. Tairov D.R., Makhmudova H.D. "Cardiovascular Damage in Patients with Gout." *Scientific Progress.* Vol. 2, No. 2, 2021, pp. 242–249.
13. Yarmukhamedova S.KH., Kamolova D.ZH. "Study of Myocardial Geometry in Hypertensive Patients Using Echocardiography." *Achievements of Science and Education.* No. 12 (53), 2019.
14. Eliseev M.S., Barskova V.G., Nasonov V.A. "Clinical Significance of Metabolic Syndrome in Gout." *Clinical Gerontology.* Vol. 12, No. 2, 2006, pp. 29–33.
15. Tairov E.S., Tairov D.R., Solovyev S.K. "Gout: Diagnosis and Treatment." Tashkent, Uzbekistan, 2020.
16. Sowers M.J., Whaley-Connell A., Hayden M.R. "The Role of Obesity in Cardiorenal Syndrome." *Cardiorenal Medicine.* Vol. 1, 2011, pp. 5–12.
17. Hayden M., Tyagi S.K. "Uric Acid: A New Perspective on an Old Cardiovascular Risk Marker." *Nutr Metab (London).* Vol. 1, 2004, p. 10.
18. Jalal D.I., Chonchol M., Chen W., Targher G. "Uric Acid as a Therapeutic Target in CKD." *Am J. Dis.*, 2013, Vol. 61, pp. 134–146.
19. Johnson R.J., Segal M.S., Sautin Y., Nakagawa T., Feig D.I., Kang D.H., Gersch M.S., Benner S., Sanchez-Lozada L.G. "Potential Role of Sugar (Fructose) in the Epidemics of Hypertension, Obesity, and Metabolic Syndrome." *Am J Clin Nutr.* Vol. 86, 2007, pp. 899–906.
20. Steele T. "Human Urate Secretion: Pyrazinamide Suppression Test." *Ann Intern Med.* Vol. 79, 1973, pp. 734–737.
21. Suliman M.E., Johnson R.J., Garcia-Lopez E., et al. "J-Shaped Relationship Between Uric Acid and Mortality in CKD." *Am J. Dis.* Vol. 48, 2006, pp. 761–771.
22. Kan D.H., Nakagawa T., Feng L., Watanabe S., Han L., Mazzali M., Truong L., Harris R., Johnson R.J. "The Role of Uric Acid in Kidney Disease Progression." *J Am Soc Nephrol.* Vol. 13, 2002, pp. 2888–2897.
23. Tseng C. "Correlation of Urinary Albumin Excretion Rate with Uric Acid Levels in Type 2 Diabetes." *Kidney Int.* Vol. 68, 2005, pp. 796–801.
24. Ono I., Hosoya T., Gomi H., et al. "Serum Uric Acid and Kidney Failure Prognosis in IgA Nephropathy Patients." *Nephron.* Vol. 87, 2001, pp. 333–339.
25. Thomas G., Sehgal A.R., Kashyap S.R., Srinivas T.R., et al. "Metabolic Syndrome and Kidney Disease: A Systematic Review and Meta-Analysis." *Clin J Am Soc Nephrol.* Vol. 6, 2011, pp. 2364–2373.
26. Wright A.F., Rudan I., Hastie N.D., Campbell H. "The Complexity of Urate Transporters." *Kidney Int.* Vol. 78, 2010, pp. 446–452.
27. Gutman A.B., Yu T.F. "Urate Nephrolithiasis." *Am J Med.* Vol. 45, 1968, pp. 756–779.